

**GENETIKA VA O'SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV ABRORBEK ADILJONOVICH

**G'O'ZA NAVLARI BILAN YOVVOYI TUR HAMDA INTROGRESSIV
SHAKLLAR F₁ – F₂ DURAGAYLARIDA QIMMATLI XO'JALIK
BELGILARINING IRSIYLANISHI**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor
of philosophy (PhD) on biological sciences**

Мамажонов Аброрбек Адилжонович

G'oz navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllar $F_1 - F_2$
duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi. 3

Мамажонов Аброрбек Адилжонович

Наследование хозяйственно-ценных признаков у гибридов $F_1 - F_2$
сортов с дикими типами и интрогрессивных форм хлопчатника 21

Мамажонов Аброрбек Адилжонович

Inheritance of valuable economic characters in F_1-F_2 hybrids of cotton
varieties with wild type and introgressive forms. 39

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**GENETIKA VA O'SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJONOV ABRORBEK ADILJONOVICH

**G'O'ZA NAVLARI BILAN YOVVOYI TUR HAMDA INTROGRESSIV
SHAKLLAR F_1 – F_2 DURAGAYLARIDA QIMMATLI XO'JALIK
BELGILARINING IRSIYLANISHI**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/B1201 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning (www.genetika.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo'raqulov G'ayrat Nematovich

biologiya fanlar nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Qaxxarov Izatillo Tilovovich

Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Mo'minov Xasan Aliqulovich

Biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Davlat Agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «__» mart kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz p/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90, E-mail: igebr_anruz@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz. Tel.: (+99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ da tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

A.A. Narimanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q/x.f.d., professor

I.Dj.Kurbanbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, b.f.d., professor

S.K.Baboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda paxta eng ko‘p yetishtiriladigan nooziq-ovqat ekini bo‘lib, yiliga 30 mln gektar maydonda 20 mln tonnadan ortiq paxta tolasi yetishtiriladi. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida genetik seleksion tadqiqotlarda atrof muhitning stress faktorlariga, kasallik va zararkunandalarga chidamli bo‘lgan boshlang‘ich manbalari g‘o‘zaning yovvoyi ajdodlaridan foydalanish hisobiga madaniy ekinlar genetik o‘zgaruvchanligini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu o‘rinda, g‘o‘zaning geografik uzoq, genom tarkibi va xususiyati genetik jihatdan boyitilgan manbalarni irsiylanishi va rivojlanishini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida g‘o‘zaning madaniy va yovvoyi turlari ishtirokida olingan namunalarda tola sifati ko‘rsatkichlari, hosildor va qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan, noqulay iqlim sharoitlariga bardoshli yangi tizma va navlar yaratish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, mavjud navlar bilan yovvoyi tur va introgressiv shakllar ishtirokida olingan genotipik jihatdan boyitilgan manbalarni genetik-seleksion ishlarida dastlabki manba sifatida foydalanish, hamda jahon standartlariga mos g‘o‘za navlarni yaratish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda so‘nggi yillarida suv tanqisligiga chidamli, serhosil, tola sifati yuqori bo‘lgan g‘o‘zaning o‘rta tolali navlar yaratishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida qishloq xo‘jalik ekinlari unumdorligini oshirish, sifatini yaxshilash, genetik-seleksion tadqiqotlarning samaradorligini oshirish borasida muhim natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan qishloq xo‘jalik rkinlarining yangi seleksion navlarini yaratish va joriy etish” vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda, poliploid turlarni introgressiv shakllar bilan retsiprok va pog‘onali duragaylash asosida kompleks qimmatli-xo‘jalik belgilarga ega bo‘lgan manbalar olish hamda ularni genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son «Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 yanvardagi PQ-23-son «Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmonida ko‘zda tutilgan chora-tadbir va vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni

² 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-son «Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» qarori.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Gʻoʻzaning qimmatli xoʻjalik va morfobiologik belgilari irsiylanishi, tezpisharlik, turli kasallik va zararkunandalarga chidamlilik, yuqori tola sifatiga ega boʻlgan noyob genotiplarni izlash va bu belgilarni madaniy navlarga oʻtkazish borasida xorijiy olimlar X.Ch.Cao & al. (2020), N.Bilal & al. (2019), M.Khadijah & al. (2019), B.Sundas & al. (2010), A.Khan & al. (2000) tomonidan samarali natijalarga erishilgan.

Respublikamiz olimlaridan A.R.Siddiqov (2006), D.F.Musayev, M.F.Abzalovlar (2010), I.Gʻ.Amanturdiyev, Sh.E.Namazov, S.Gʻ.Boboyev, M.Toʻxliyevlar (2019) M.R.Kodirova, I.T.Qaxxarov, M.K.Mutalovalar (2014), B.A.Sirojiddinov (2020), N.N.Nabiyeva, A.R.Xusanovlar (2021) tomonidan morfobiologik belgilarni irsiylanishi turli duragaylash uslublarini qoʻllash orqali madaniy nav namunalari, geografik jihatdan uzoq boʻlgan yovvovi turlar va introgressiv shakllar ishtirokidagi tajribalarda oʻrganilgan.

Biroq, mazkur tajribalarda olib borilgan gʻoʻza navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarda aynan retsiprok va pogʻonali duragaylash orqali qimmatli xoʻjalik belgilar va morfobiologik belgilarni F_1 , F_2 avlodda irsiylanishi, oʻzgaruvchanligi va korrelyativ aloqadorligi yetarli darajada oʻrganilmagan. Shu sababli mazkur tajriba uchun olingan ashyo va qoʻllanilgan uslublar yordamida qimmatli xoʻjalik belgilarining irsiylanishi va transgressiv oʻzgaruvchanligini oʻrganish va qimmatli xoʻjalik belgilarga ega manbalar ajratib olish, hamda amaliyotga joriy qilish gʻoʻza oʻsimligidan olinadigan xom-ashyolarni yaxshilashga qaratilgan ustuvor yoʻnalishlardan biridir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Fargʻona vodiysi qishloq xoʻjaliklarida yetishtiriladigan gʻoʻza va soya oʻsimliklarining genetikasi va seleksiyasi» (2018-2022) ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Gʻoʻza navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarni retsiprok va pogʻonali duragaylash asosida ularning F_1 - F_2 avlodlarida morfobiologik va qimmatli xoʻjalik belgilarini irsiylanishi va korrelyatsion bogʻliqlik darajasini aniqlash, hamda kompleks qimmatli-xoʻjalik belgilarga ega boʻlgan rekombinant manbalar olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi.

F_0 duragay avlodlarda koʻsak tugilishi va koʻsakda toʻliq urugʻlar tugilish koʻrsatkichlarini aniqlash;

F_1 duragay avlodda mahsuldorlik xususiyatlarini tahlil etish;

F_1 - F_2 duragay avlodda qimmatli xoʻjalik belgilarining irsiylanishi va transgressiv oʻzgaruvchanligini aniqlash;

F_1 - F_2 duragay avlodda morfobiologik belgilarini irsiylanishini aniqlash;

F_1 - F_2 duragay avlodda morfobiologik belgilarini bitta koʻsakdagi paxta vazni

bilan korrelyatsion bog‘liqlik darajasini o‘rganish;

olingan yangi duragay kombinatsiyalaridan kompleks qimmatli-xo‘jalik belgilarga ega bo‘lgan rekombinant manbalar ajratib olish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida *G.hirsutum* L. turiga mansub tetraploid navlardan G‘olib, Andijon-35, Namangan-77 va Qizil baraka navlari tanlab olindi. Shimoliy G‘arbiy Braziliya hududlarida o‘svuchi yovvoyi tetraploid turlardan *G.mustelinum* Miers ex Watt va sun‘iy mutagenез usuli bilan olingan allotetraploid introgressiv shakl T-85 (F_6 (Kelajak x (*spp.nanking* (oq tolali) x *G.nelsonii*))) tizmalari olingan.

Tadqiqotning predmeti navlari bilan yovvoyi tur va introgressiv shakllarni duragaylash, qimmatli xo‘jalik va morbiologik belgilarni irsiylanish xususiyatlarini va korrelyatsion bog‘liqligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada g‘o‘za genetikasi va seleksiyasining klassik usublari, duragaylash, gibridologik tahlil, fenologik kuzatuvlar, qiyosiy morfologiya va genetik-statistika tahlillarining zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor g‘o‘za navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarni retsiprok va pog‘onali duragaylash orqali olingan F_0 duragaylarda duragay ko‘saklar tugilishi va ko‘saklarda to‘liq urug‘lar tugilish darajasi bo‘yicha pog‘onali chatishtirib olingan duragaylarda retsiprok chatishtirib olingan duragaylarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar aniqlangan;

F_1 - F_2 kombinatsiyalarda qimmatli xo‘jalik belgilarning irsiylanishi, transgressiv o‘zgaruvchanligi aniqlangan;

F_1 - F_2 kombinatsiyalarda morfobiologik belgilarning irsiylanishi va bitta ko‘sakdagi paxta vazni bilan korrelyatsion bog‘liqlik darajalari aniqlangan;

g‘o‘za gulining umumiy uzunligi F_1 va F_2 avlodlarda irsiylanishi va rivojlanishini bo‘yicha olingan ma‘lumotlarga asoslanib, mazkur belgini poligenlar ya‘ni ikkitadan ortiq genlar ta‘sirida irsiylanishi aniqlangan;

miqdoriy belgilarni yaxshilash uchun foydalanilgan duragaylash usublari ichida pog‘onali duragaylash uslubi samarali ekanligi isbotlangan;

yaratilgan yangi genetik boyitilgan shakllardan kompleks qimmatli-xo‘jalik belgilarga ega bo‘lgan rekombinant manbalar ajratib olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

G‘o‘za navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarni retsiprok va pog‘onali duragaylash orqali F_0 duragaylarida duragay ko‘sak tugilishi va ko‘sakda to‘liq urug‘lar tugilish darajalari, F_1 o‘simliklarda mahsuldorlik xususiyatlarini va qimmatli xo‘jalik hamda ayrim morfobiologik belgilarini F_1 , F_2 avlodda irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi, morfobiologik belgilar bilan bitta ko‘sakdagi paxta vazni o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlangan hamda yuqori ko‘rsatkichli duragaylar ajratib olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi genetika va amaliy seleksiyaning kompleks usullarining qo‘llanilganligi, ular asosida olingan natijalarning xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlardagi muhokamasi va yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ma‘lumotlarning statistik tahlil qilinganligi, shuningdek, xulosalarning ilmiy jihatdan isbotlanganligi, tadqiqotlarda klassik va zamonaviy usulblar hamda

nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi. Izlanishlar asosida olingan genetik jihatdan boyitilgan shakllarning genetika-seleksiya tadqiqotlari uchun dastlabki manba sifatida foydalanishga tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g'oz navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarni retsiprok va pog'onali duragaylash orqali olingan F₀ duragay avlodlarda ko'sak tugilishi va ko'sakda to'liq urug'lar tugilishi, F₁ duragay avlodda mahsuldorlik xususiyatlari, F₁-F₂ duragay avlodda qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi va transgressiv o'zgaruvchanligi, F₁-F₂ duragay avlodda morfobiologik belgilarini irsiylanishi va morfobiologik belgilarini bitta ko'sakdagi paxta vazni bilan korrelyatsion bog'liqlik darajasi ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati miqdoriy belgilarni yaxshilashda pog'onali duragaylash uslubi samarali ekanligi va yangi genetik boyitilgan shakllardan kompleks qimmatli-xo'jalik belgilarga ega bo'lgan rekombinant manbalarni genetik-seleksiya izlanishlarda dastlabki manba sifatida tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'oz navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarni retsiprok va pog'onali duragaylash orqali qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Gossypium L. turkumiga *G.hirsutum* L. turiga mansub navlar, *G.mustelinum* Miers ex Watt. yovvoyi turi va genotipida *G.nelsonii* Fryx. turi genlari mujassamlashgan tizmalar ishtirokida Retsiprok va pog'onali duragaylash usullarini qo'llash asosida olingan noyob boshlang'ich manbalar urug'lari O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining "G'oz genofondi" noyob obyekt kolleksiyasiga taqdim etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 11-iyuldagi 4/1255-1567-son ma'lumotnomasi). Natijada, g'oz kolleksiya fondini boyitish bilan birga, genetik jihatdan boyitilgan kompleks qimmatli-xo'jalik belgilariga ega rekombinantlar amaliy seleksiya jarayonlarida boshlang'ich manba sifatida foydalanish imkonini bergan;

(Andijon-35 x G'olib) x Qizil baraka, (Namangan-77 x Andijon-35) x T-85 va (Namangan-77 x Andijon-35) x *G.mustelinum* Miers ex Watt duragaylari Andijon viloyati Qo'rg'on tepa va Ulug'nor tumanlarda amaliyotga joriy etilgan (O'zR Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 14 oktyabrdagi 05/04-04-513-son ma'lumotnomasi). Natijada, (Andijon-35 x G'olib) x Qizil baraka duragayday populyatsiyalarida mazkur tumanda an'anaviy ravishda ekib kelinayotgan "Andijon-35" naviga nisbatan gektaridan 4,1 sentner qo'shimcha hosil olinganligi aniqlanib, rentabellik darajasi o'rtacha 11,6 % gacha ko'tarish imkonini bergan;

g'ozaning Namangan-77, Qizil baraka navlari va T-85 tizmalarining barg shakli, gulning va urug'chining uzunliklari, poya rangi bilan hosildorlik belgilari o'rtasida aniqlangan korrelyatsion bog'liqlik va pog'onali duragaylash usuli Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituda bajarilgan FA-A-KX2018-30 – "Yangi tezpishar, hosildor, kasalliklarga bardoshli, tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan, muhim xo'jalik belgilarini o'zida mujassam etgan g'oz navlarini

yaratish va takomillashtirish” mavzusidagi amaliy loyihada yangi navlarni tanlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 6 sentabrdagi 4/1255-1976-son ma’lumotnomasi). Natijada, g‘o‘za tizma va navlarini yaratishda pog‘onali duragaylash samarali uslub ekanligi aniqlandi hamda namunalarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**G‘o‘za navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarini duragaylashda belgilarning irsiylanishi**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublikamiz va xorij izlanuvchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalar sharhi, jumladan, g‘o‘za duragaylarida duragay ko‘sak tugilishi, ko‘sakda to‘liq urug‘lar tugilish va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, qimmatli xo‘jalik belgilari va ayrim morfobiologik belgilari irsiylanishi va korrelyatsion bog‘liqligi bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o‘tkazish sharoiti, manbai va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot material, tajriba o‘tkazish joyi va sharoitlari, izlanishlarda foydalangan uslublar to‘g‘risida qisqacha bayon qilingan.

Tadqiqotlarda *G.hirsutum* turiga mansub G‘olib, Andijon-35, Namangan-77 va Qizil baraka navlari tanlab olindi. Shimoliy g‘arbiy Braziliya hududlarida o‘sovchi yovvoyi tetraploid turlardan *G.mustelinum* Miers ex Watt va sun‘iy mutagenез usuli bilan olingan allotetraploid introgressiv shakl T-85 (F_{161} (Kelajak x (*ssp.nanking* (oq tolali) x *G.nelsonii* tizmalaridan tadqiqot ob‘ekti sifatida foydalanilib, g‘o‘za genetikasi va seleksiyasining murakkab turlararo duragaylash, tanlov ishlari, genetik-seleksion statistika tahlil qilingan. O‘sov davrida fenologik kuzatuvlar olib borilgan.

Barg shaklining irsiylanishini o‘rganishda M.F.Abzalov, G.N.Fatxullayevlar (2010, 1979) va poya rangining irsiylanishi o‘rganishda D.A.Musaev va boshqalar


ishlarida keltirilgan tasnifdan foydalanildi (2010). Birinchi bo'g'in duragaylarida belgilarning dominantlik darajasini G.E. Beil va R.E. Atkins ishlarida keltirilgan B.I.Griffing formulasi bo'yicha hisoblandi (1965). Ikkinchi bo'g'in duragaylarida belgining avloddan-avlodga berilish ko'rsatkichi (h^2) S.N.Warner formulasi asosida hisoblab chiqildi. Olib borilgan barcha amaliy tadqiqot natijalari, miqdoriy belgilarning ko'rsatkichlari B.A.Dospexov (1985) uslubi yordamida statistik tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning «**G'o'za navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllarining F₀ duragaylarida duragay ko'sak tugilishi, ko'sakda to'liq urug'lar shakllanishi va F₁ duragaylarida mahsuldorlik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan uchinchi bobida g'o'za navlari bilan yovvoyi tur va introgressiv shakllarning o'rtasida turli usullarda duragaylash ishlari olib borilgani va F₀, F₁ duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarni shakllanishiga ta'sir qiluvchi ayrim ko'rsatkichlar o'rganilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo'limida g'o'za navlari bilan yovvoyi tur va introgressiv shakllarning o'zaro oddiy, retsiprok va pog'onali chatishtirish asosida olingan F₀ duragaylarda duragay ko'saklar tugilishi va ko'saklarda to'liq urug'lar tugilish darajasi bo'yicha pog'onali chatishtirib olingan duragaylarda oddiy va retsiprok chatishtirib olingan duragaylarga nisbatan yuqori natijalar olinganligi qayd etilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida mahsuldorlik ko'rsatkichlaridan bir tup o'simlikda jami ko'saklar soni, ochilgan ko'saklar soni, bir dona ko'sak uchun jami urug'lar soni, shulardan to'liq va puch urug'lar soni nav, tizma va F₁ o'simliklarda shakllanishi va irsiylanishi retsiprok va pog'onali duragaylash usullaridan foydalanib olingan o'simliklarda tahlil qilingan. *G.hirsutum* L. turiga mansub tetraploid navlardan bir tup o'simlikda jami ko'saklar soni 13,5-23,7 dona oraliq'ida bo'lib, ochilgan ko'saklar soni esa 9,1-12,5 dona oraliqda, Namangan-77 navi (23,7 dona) yuqori ko'satkich namoyon qilgan bo'lsa, G'olib va Andijon-35 (15,2 va 18,4 donadan) navlari o'rta va Qizil baraka navi (13,8 dona) esa quyi ko'rsatkichli ekanligi aniqlangan.

Mahsuldorlik ko'rsatkichlar pog'onali duragaylash orqali olingan F₁ (G'olib x Andijon-35) x Qizil baraka duragaylarida yuqori natijani, F₁(G'olib x Andijon-35) x *G.mustelinum* Miers ex Watt duragaylari o'rta natijani, F₁(G'olib x Andijon-35) x T-85 duragaylari esa quyi natijani olingani va bu natijalarga asoslanib, F₁G'olib x Andijon-35 duragaylarining genom tarkibi Qizil baraka navi bilan kichik, *G.mustelinum* Miers ex Watt yovvoyi tur bilan o'rta darajada va T-85 tizmasi bilan keng darajada farq qilishi aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. F₁ duragaylarida ko'sakda to'liq urug'larning tugilish foizi, %

Dissertatsiyaning «G'o'za navlari bilan yovvoyi tur hamda introgressiv shakllar F₁ – F₂ duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarini irsiylanishi» deb nomlangan to'rtinchi bobida g'o'za navlari bilan yovvoyi tur va introgressiv shakllarning o'rtasida turli usullarda duragaylash ishlari olib borilgani va F₁, F₂ duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarni irsiylanishi va o'zgaruvchanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo'limida bitta ko'sakdagi paxta vazni belgisi irsiylanish taxlillari keltirilgan. F₁ duragay o'simliklardagi «bitta ko'sakdagi paxta vazni» belgisi taxlillariga asosan, Retsiprok chatishtirish ishlarida ashyolarning resipient yoki donor o'simlik sifatida ishtiroki bitta ko'sakdagi paxta vaznini birinchi avlodda irsiylanish natijalariga katta ta'sir etmasligi aniqlangan. Tur ichi duragaylariga qaraganda turlararo F₁ duragaylarda bitta ko'sakdagi paxta vaznini irsiylanishida ko'proq ijobiy natijalar olingan, hamda F₁ duragaylarida bitta ko'sakdagi paxta vaznining irsiylanishi bo'yicha ijobiy va salbiy kuchsiz, o'rta va kuchli dominantlik hamda ijobiy va salbiy geterozislar qayd etilgan. F₁ o'simliklari ichida bitta ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha F₁ G'olib x Andijon-35, F₁ Andijon-35 x G'olib, F₁ G'olib x Namangan-77 va F₁ Namangan-77 x G'olib kombinatsiyalarida yuqori, F₁ G.mustelinum Miers ex Watt x Namangan-77, F₁ T-85 x G.mustelinum Miers ex Watt va F₁ (Andijon-35 x Namangan-77) x T-85 nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan. F₁ avlodda oddiy duragaylash orqali olingan kombinatsiyalarda, F₂ avlodda esa pog'onali duragaylash orqali olingan kombinatsiyalarda bitta ko'sakdagi paxta vazni belgisi bo'yicha ijobiy natijalar qayd etilganligi va F₂ duragaylarida bitta

ko'sakdagi paxta vaznini o'zgaruvchanlik dalillarini tahlil qilish natijasida ota-ona va F₁ duragaylarda ijobiy natija namoyon qilgan o'simliklarning F₂ avlodlarda ham ijobiy ko'rsatkichlar namoyon qilib irsiylanganligi aniqlangan.

1-jadval

Ota-ona shakllari va F₁ duragaylarida tola uzunligi belgisining irsiylanishi

№	Ota-ona shakllari va F ₁ durugay kombinatsiyalari	Tola uzunligi, mm				
		X±m%	min-max	S	V%	hp
Ota-ona shakllari						
1	G'olib	32,5±0,9	28,3-38,3	2,7	7,5	
2	Andijon-35	33,8±0,8	30,0-37,3	2,4	6,1	
3	Namangan-77	35,5±0,3	32,0-38,0	1,1	2,8	
4	Qizil baraka	34,7±1,1	27,0-43,0	3,5	9,1	
5	<i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt	24,7±2,1	12,3-33,0	6,7	24,2	
6	T-85	39,1±0,1	38,0-40,0	0,1	2,1	
F₁ o'simliklar resiprok chatishtirish kombinatsiyalari						
1	G'olib x Andijon-35	32,9±0,7	30,0-36,3	2,3	6,1	-0,3
2	Qizil baraka x G'olib	35,9±0,9	30,0-42,3	3,1	7,8	2,1
3	Namangan-77 x T-85	36,6±0,8	31,3-42,0	2,5	6,0	-0,4
4	T-85 x Namangan-77	34,5±0,3	33,3-35,7	0,9	2,6	-1,6
5	(G'olib x Andijon-35) x T-85	36,2±0,9	28,0-43,0	3,1	7,6	0,1
6	(Andijon-35 x Namangan-77) x T-85	34,9±0,9	29,3-42,3	2,9	7,5	-0,7
7	<i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt x G'olib	28,3±0,23	24,3-35,7	2,3	7,2	-0,1
8	<i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt x Namangan-77	27,7±1,2	21,7-31,3	3,7	11,6	-0,4
9	(G'olib x Namangan-77) x <i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt	29,9±0,5	27,6-32,0	1,4	4,2	-0,1

Bundan tashqari, kelib chiqishi, genotip va geografik jihatdan uzoq bo'lgan shakllar orasidagi F₂ o'simliklarining bitta ko'sakdagi paxta vaznining o'zgaruvchanlik amplitudasi keng ko'lamlil bo'lishi hamda belgining shakllanishida genlarning ulushi (h²) oshib borishi va pog'onali duraygashlash orqali olingan kombinatsiyalarda ijobiy transgressiya qayd etilganligi va F₂ duragaylarda bitta ko'sakdagi paxta vazni bo'yicha F₂ Namangan-77 x G'olib, F₂ G'olib x Qizil baraka, F₂ (Namangan-77 x Andijon-35) x *G.mustelinum* Miers ex Watt va F₂ (Andijon-35 x G'olib) x Qizil baraka kombinatsiyalari donor sifatida ajratib olinganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida tola uzunligining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi to'g'risida tahlillar keltirilgan. F₁ durugay o'simliklarda tola uzunligining irsiylanish dalillariga ko'ra, Retsiprok duragaylashda ishtirok etgan ashyolarning ota yoki ona

shakli sifatidagi ishtiroki belgining irsiylanishi va shakllanishida katta ahamiyat kasb etmaydi, pog'onali chatishtirish orqali olingan F_1 avlodda tola uzunligini ijobiy tomonga o'zgarishi va F_1 avlodda irsiylanish darajasi aniqlangan.

F_1 duragaylari ichida tola uzunligi bo'yicha F_1 Qizil baraka x G'olib, F_1 Namangan-77 x T-85, F_1 (G'olib x Andijon-35) x T-85 va F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) x T-85 kombinatsiyalarida yuqori, F_1 *G.mustelinum* Miers ex Watt x G'olib, F_1 *G.mustelinum* Miers ex Watt x Namangan-77 va F_1 (G'olib x Namangan-77) x *G.mustelinum* Miers ex Watt kombinatsiyalarida nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Tola uzunligi bo'yicha F_2 avlodda yuqori ko'rsatkichlar retsiprok duragaylar ichida F_2 G'olib x Namangan-77 va F_2 Namangan-77 x G'olib kombinatsiyalarida, oddiy duragaylar ichida F_2 Namangan-77 x T-85 kombinatsiyalarida, pog'onali duragaylar ichida F_2 (Andijon-35 x G'olib) x Qizil baraka, F_2 (Namangan-77 x G'olib) x Qizil baraka, F_2 (Namangan-77 x Andijon-35) x T-85 va F_2 T-85 x (Namangan-77 x Andijon-35) kombinatsiyalarda aniqlandi. Mazkur belgi bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichlar esa F_2 G'olib x Andijon-35, F_2 Andijon-35 x G'olib, F_2 *G.mustelinum* Miers ex Watt x T-85 va F_2 (Andijon-35 x G'olib) x *G.mustelinum* Miers ex Watt kombinatsiyalarida aniqlandi. Tajribada olingan F_2 avlod o'simliklarda aniqlangan variatsion koeffisientlarning tor doirada bo'lishi belgining shakllanishida tashqi omillar ta'sirida kam o'zgarishini, asosan genotip hisobiga irsiylanishini va pog'onali duragaylash orqali tola uzunligini F_1 va F_2 avlodda nisbatan samarali yaxshilash imkoniyati mavjudligi qayd etilgan.

Bobning uchinchi bo'limida tola chiqimining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi to'g'risida tahlillar keltirilgan. Olingan natijalar tahlillariga ko'ra pog'onali chatishtirishda tola chiqimining F_1 avlodda shakllanishi va irsiylanishi dastlabki ashyolar ota yoki ona shaklda ishtiroki ahamiyatli bo'lishi va pog'onali duragaylash usuli orqali o'rganilgan F_1 o'simliklarida tola chiqimi kam holatda ijobiy yoki salbiy geterozis kuzatilishi, aksariyat kuchli, o'rta va kuchsiz ijobiy dominantlik, hamda o'rta va kuchsiz salbiy dominantlik holatda irsiylanishi aniqlandi.

Namangan-77 navi ishtirokidagi retsiprok va pog'onali chatishtirish orqali olingan F_1 o'simliklari tola chiqimi bo'yicha yuqori ko'rsatkich namoyon qildi. Shu holatni aksini T-85 tizmasi ishtirok etgan duragay o'simliklarda ko'rish mumkin. F_1 o'simliklari ichida tola chiqimi bo'yicha retsiprok duragaylardan F_1 Qizil baraka x T-85, F_1 *G.mustelinum* Miers ex Watt x T-85 va F_1 T-85 x *G.mustelinum* Miers ex Watt kombinatsiyalaridan boshqa barcha barcha F_1 o'simliklarida qoniqarli yoki yuqori natija qayd etilgan. Pog'onali chatishtirish natijasida olingan F_1 avlodlardan F_1 (G'olib x Namangan-77) x Qizil baraka va F_1 (Namangan-77 x G'olib) x Qizil baraka kombinatsiyalarida yuqori, F_1 (Namangan-77 x Andijon-35) x T-85 kombinatsiyalarida past ko'rsatkichlar aniqlandi. Mazkur tajribada F_1 o'simliklarida yuqori $hp=8,6$ ga, past dominantlik koeffisienti esa $hp=-2,7$ ekanligi qayd etilgan. F_2 duragaylarida esa irsiylanish darajasi -0,6 dan 0,8 gacha oralig'da tebranishi qayd etilgan.

F_2 kombinatsiyalarga tegishli irsiylanish koeffisientlar (h^2) tahliliga ko'ra, tola chiqimining irsiylanishida genlarning ishtiroki qaydarajada faol bo'lishi ota-ona

shakllaridagi mazkur belgilni fenotipda namoyon bo'lishida ishtirok etuvchi genlar tarkibida yovvoyi tur genlarning miqdoriga bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. F_2 *G.mustelinum* Miers ex Watt x T-85, F_2 (Andijon-35 x G'olib) x *G.mustelinum* Miers ex Watt va F_2 (Andijon-35 x Namangan-77) x *G.mustelinum* Miers ex Watt kombinatsiyalarida tola chiqimi bo'yicha nisbatan past natijalar qayd etilgan.

Bir nechta turlar ishtirokidagi duragaylarda belgilarni shakllanishida har bir tur o'z ta'sirini o'tkazadi va buning natijasida olingan yangi duragaylarning F_2 avlodidan boshlab keng miqyosda ajralish jarayoni kechadi va ular orasidan ota-ona shakllaridan keskin farq qiluvchi transgressiv shaklli o'simliklarning ajralib chiqarishga imkoniyat bo'ladi. Shu ma'noda F_2 o'simliklar ichida retsiprok, oddiy va pog'onali chatishtirish orqali olingan F_2 G'olib x Andijon-35, F_2 G'olib x Namangan-77, F_2 Namangan-77 x G'olib, F_2 G'olib x Qizil baraka, F_2 Namangan-77 x Qizil baraka, F_2 (Andijon-35 x Namangan-77) x Qizil baraka va F_2 (Namangan-77 x Andijon-35) x Qizil baraka kombinatsiyalarida tola chiqimi bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlar namoyon qildi. Mazkur kombinatsiyalarning yuqori ko'rsatkichli individlarini kelgusida tola chiqimi bo'yicha genetik-seleksion ishlarga ashyo sifatida foydalanish rejalashtirildi.

Bobning to'rtinchi bo'limida 1000 dona chigit vazni belgisi irsiylanishi natijalari keltirilgan. Mazkur tajribada tanlab olingan ashyolarni retsiprok duragaylash orqali 1000 dona chigitni irsiylanishi o'rganish natijasida 1000 dona chigit vazni irsiylanishida retsiprok duragaylash orqali olingan F_1 o'simliklarda donor sifatida olingan ashyoning genlari turli darajada ustunlik qilishi va retsiprok F_1 o'simliklarda 1000 dona chigit vazni ijobiy va salbiy geterozis, turli darajadagi ijobiy va salbiy dominantlik namoyon qilib irsiylanishi aniqlangan.

G'o'za o'simligida pog'onali chatishtirish orqali olingan F_1 avlodda 1000 dona chigit vazni ijobiy va salbiy geterozis, kuchli, o'rta va kuchsiz dominantlik namoyon qilib irsiylanishi aniqlandi. F_1 o'simliklari ichida 1000 dona chigit vazni bo'yicha retsiprok kombinatsiyalardan F_1 Andijon-35 x G'olib, F_1 Qizil baraka x G'olib o'simliklarida, pog'onali duragaylardan F_1 (G'olib x Andijon-35) x Qizil baraka o'simliklarida yuqori ko'rsatkich, retsiprok F_1 Namangan-77 x *G.mustelinum* Miers ex Watt, F_1 *G.mustelinum* Miers ex Watt x Namangan-77 va pog'onali F_1 (G'olib x Namangan-77) x *G.mustelinum* Miers ex Watt kombinatsiyalarida nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Go'za o'simligida pog'onali duragaylash orqali olingan F_2 o'simliklarida 1000 dona chigit vaznini o'zgaruvchanligi va irsiylanish hususiyati tahlillari ko'ra mazkur belgining shakllanishi duragaylarda ishtirok etgan ashyolarning ota yoki ona shakli bo'lishi ahamiyatga ega emas ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan, pog'onali duragaylash orqali olingan F_2 o'simliklarining har bir kombinatsiyasida 1000 dona chigit vaznining o'zgaruvchanligi va irsiylanishiga ota-ona shakllarining genotiplari va tashqi muhit omillari o'ziga hos ta'sir etishi ta'kidlash mumkin. F_2 o'simliklar ichida 1000 dona chigit vazni bo'yicha retsiprok duragaylardan F_2 (Namangan-77 x G'olib) kombinatsiyasida, oddiy duragaylar ichida F_2 (G'olib x Qizil baraka) kombinatsiyasida, pog'onali duragaylar ichida F_2 (Andijon-35 x G'olib) x *G.mustelinum* Miers ex Watt, F_2 (Namangan-77 x G'olib) x Qizil baraka va F_2

(Namangan-77 x Andijon-35) x *G.mustelinum* Miers ex Watt kombinatsiyalarida yuqori natijalar qayd qilindi. Mazkur belgi bo'yicha F₂ (G'olib x Namangan-77) x T-85 va (Andijon-35 x Namangan-77) x T-85 kombinatsiyalarida nisbatan past natijalar aniqlandi.

2-jadval

F₂ duragay shakllarda kompleks qimmatli-xo'jalik belgilarga ega bo'lgan rekombinantlarni ajratib olish

№	F ₂ duragay kombinatsiyalari	Bitta ko'sakdagi paxta vazni, g	Tola uzunligi, mm	Tola chiqimi, %	1000 dona chigit vazni, g
Retsiprok (oddiy) duragay kombinatsiyalar					
1	G'olib x Qizil baraka	6,9±0,4	32,6±0,1	40,1±1,9	122,7±5,9
2	Namangan-77 x Qizil baraka	6,1±0,5	34,2±0,1	40,2±1,7	116,5±5,8
3	Namangan-77 x <i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt	4,7±0,3	34,4±0,1	36,1±2,3	118,3±5,8
Pog'onali duragay kombinatsiyalar					
1	(G'olib x Andijon-35) x Qizil baraka	5,8±0,4	35,1±0,1	37,9±1,7	115,3±4,7
2	(G'olib x Andijon-35) x <i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt	4,8±0,4	35,3±0,1	34,8±2,5	116,9±7,9
3	(Namangan-77 x G'olib) x Qizil baraka	5,5±0,4	36,4±0,1	36,4±1,6	121,9±5,5
4	(Namangan-77 x G'olib) x T-85	4,8±0,5	33,7±0,1	36,4±1,6	117,8±6,0
5	(Andijon-35 x Namangan-77) x Qizil baraka	5,5±1,2	34,7±0,1	41,4±1,4	109,2±4,8
6	(Andijon-35 x Namangan-77) x <i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt	4,7±0,8	34,2±0,1	32,5±1,8	118,4±7,3
7	(Andijon-35 x Namangan-77) x T-85	4,8±0,4	34,6±0,1	41,6±2,1	102,7±6,2
8	(Namangan-77 x Andijon-35) x Qizil baraka	5,9±0,5	34,1±0,1	40,9±1,4	118,7±6,6
9	(Namangan-77 x Andijon-35) x <i>G.mustelinum</i> Miers ex Watt	4,9±0,4	34,2±0,1	35,4±2,1	128,6±5,8
10	T-85 x (Namangan-77 x Andijon-35)	4,9±0,3	36,3±0,0	35,7±1,4	117,2±5,0

